

## ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHNING GLOBALLASHUV JARAYONIGA TA'SIR OMILLARI

### ORTIQOV FARMONBOY RAXMON O'G'LI

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti 3-bosqich talabasi

E-mail: [farmonboyortiqov1@gmail.com](mailto:farmonboyortiqov1@gmail.com)

Telefon raqami: +998997714505

### SHARIPOV TULQIN SAIDAXMEDOVICH

“Real iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, O'zbekiston

E-mail: [sharipovtulqin942@gmail.com](mailto:sharipovtulqin942@gmail.com)

Telefon raqami: +99898 271 35 36

#### ARTICLE INFO.

#### Abstract:

##### Keywords:

elektron tijorat, globallashuv, ularga kirish, savdo va xizmatlar shish, logistika va transport, yaviy operatsiyalar, marketing klama.

Yangi davrga o'tish, inson faoliyatining o'zgarishi va mlashtirilishi aynan elektron tijorati sohasida, ingdek, butun iqtisodiyotda savdo aylanmasining jadal lanishi va o'sishiga xizmat qildi. Internet platformasi o o'sib borayotgan soha va ayni paytda iqtisodiyot uchun li asos bo'lib xizmat qilmoqda. Savdoning yangi turi i bandligini ta'minlash, o'zini-o'zi ish bilan ta'minlash n yangi istiqbollarni ochib, xususiy tadbirkorlik rivojiga i bo'lmoqda. Ushbu maqolada globallashuv davrida ra rivojlanib borayotgan elektron tijoratning global odiyotni takomillashtirishdagi o'rni va omillari haqida borgan. Shuningdek, bu jarayonni amalga oshirish li mamlakatda qanday qilib sohalarni rivojlantirishdagi oflik va yengillik yaratish mumkinligi keltirilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

**Kirish.** Elektron tijoratni rivojlantirishning globallashtirish jarayoniga ta'siri juda katta. Elektron tijorat dunyodagi mamlakatlarni bir-biriga bog'lab turadi va ularga yangi imkoniyatlar ochadi. Bu jarayon orqali mamlakatlar o'rtasida savdo muomalalarini osonlashtirish, xarajatlarni kamaytirish, yangi bozorlarga kirish imkoniyatlarini yaratish mumkin bo'ladi. Elektron tijorat orqali kompaniyalar o'zlarini global bozorda ko'rsatish, yangi mijozlar bilan aloqalar o'rnatish va xizmatlarini dunyo bo'ylab taqdim

etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Elektron tijoratning jahon iqtisodiyotiga ta'sirini aniqlash, ushbu sohadagi dolzarb masalalarni ko'rib chiqishdan, avval, "elektron tijorat", "elektron biznes", "elektron tijorat" kabi asosiy tushunchalarni izohlashimiz kerak. Y.Nanehkaranning ta'kidlashicha, "elektron tijorat inson hayotini tubdan o'zgartirgan kuchli innovatsion jarayon bo'lib, elektron tijorat ham iqtisodiy sohada axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari inqilobining asosiy mezonlaridan biridir". J.Ritterning ta'kidlashicha, "Elektron tijorat yoki elektron savdo –bu Internetda tovarlar va xizmatlarni sotib olish va sotish hamda Internet platformasida iste'molchilalar tomonidan narxlarini solishtirish va eng so'nggi ma'lumotlarni ko'rish uchun ma'lumot manbai".

To'g'rirog'i, elektron tijorat internet orqali tovarlar va xizmatlarni sotib olish va sotishni, shuningdek, transchegaraviy xususiyatlarga ega bo'lgan va ma'lum bir mamlakatning chakana eksportini osonlashtiradigan savdo turini o'z ichiga olgan biznes turidir. Shunday qilib, yangi telekommunikatsiya texnologiyalari va qurilmalarning ixtiro qilinishi, shuningdek, savdoning zamonaviy turi paydo bo'lishiga yordam berdi, unda kompaniyalar va iste'molchilar uchun juda ko'p afzalliklar yaratildi, ammo boshqa jihatdan ba'zi kamchiliklar va jiddiy muammolarning paydo bo'lishiga olib keldi.

R.Mensel elektron tijoratning ijobiy ta'sirini qayd etib, shuni ko'rsatadiki, ushbu turdagi savdo allaqachon mijozlarga xizmat ko'rsatishdan tortib, yangi mahsulotlarni ishlab chiqishgacha bo'lgan biznesning barcha sohalarida namoyon bo'lmoqda. Elektron tijorat onlayn reklama hamda marketing, onlayn buyurtma qabul qilish, onlayn xizmat ko'rsatish kabi yangi ma'lumotlarga va xizmatlarga asoslangan biznes jarayonlarni yaratmoqda. Yuqorida qayd etilganlarga asoslanib, biz elektron tijorat virtual makonda an'anaviy biznes amaliyotlarini avtomatlashtirish va o'zgartirishda asosiy xususiyatlardan biri ekanligini ta'kidlashimiz mumkin. Bundan tashqari, ushbu transformatsiyada vujudga keluvchi mavjud operatsiyalarning avtomatlashtirilishi, ya'ni raqamlashtirilishi biznes samaradorligini oshirmoqda. Shu jumladan, tijoratning raqamlashuvi muntazam ishlarni soddalashtirmoqda hamda chakana savdo uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilmoqda. Onlayn savdoning ijobiy tomoni shundaki, u operatsion xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Misol uchun taklif qilinayotgan infomahsulot yuklab olish uchun mavjud bo'lsa, u holda logistika xarajatlari butunlay bekor qilinadi. Bozorlarda onlayn savdoni amalga oshirish jarayonida iste'molchilar tovarlar narxini taqqoslash, komissiya uchun chegirma olish kabi juda qulay xizmatlardan foydalanishlari mumkin. Darhaqiqat, yuqoridagi ijobiy omillar foydalanuvchilar tomonidan tovar va xizmatlarni xarid qilishdan tashqari, tadbirkorlikni joriy etish uchun qulay shartsharoitlarni to'liq ta'minlamaydi.

Internetda ushbu turdagi faoliyatni targ'ib qilish uchun xavfsizlikni ta'minlash va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash ahamiyatli masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, xavfsizlik deganda foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarining xavfsizligi, shuningdek, xavfsiz tranzaksiyalarni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar majmui tushuniladi. Ta'kidlash joizki, xavfsiz onlayn do'kon mijozlarga optimal xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi, bu esa savdo hajmini oshirishga olibkeladi va mijozlar bilan ijobiy munosabatlar o'rnatish imkonini beradi<sup>4</sup>. Bundan tashqari, ko'pgina platformalarda mahsulot sifati uchun kafolatlar deyarli yo'q. Deyarli, har bir platformada siz pochta jo'natmalaridagi tovarlarning shikastlanishi va tovarlar sifatidagi farq haqida sharhlarga duch kelasiz, ya'ni sotilayotgan tovar farqli sifat va ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. Shunga qaramasdan, davlatlararo chegaralarni o'chirib tashlayotgan elektron tijorat–foydalanuvchilarga butun dunyo bo'ylab onlayn xaridlarni qulay tarzda amalga oshirish imkonini bermoqda.

Elektron biznesning mohiyati butun elektron biznesni strukturasi o'zaro bog'langan gorizont va vertikal tuzilmalardan iborat. Birinchi holda, elektron biznes quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: elektron tijorat; elektron xususiy xaridlar; elektron davlat xaridlari; mijozlarga elektron xizmat ko'rsatish; biznes hamkorlar va xodimlarga elektron xizmat ko'rsatishdir. Ikkinchi holda, tijorat munosabatlari mavjud bo'lgan ishtirokchilar tomonidan muayyan biznes modelini tanlash orqali belgilanadi: –Business-to-business (B2B) (biznesdan biznesga) ushbu biznes modeli kompaniyalar o'rtasidagi elektron tijorat, ya'ni yuridik shaxslar boshchiligidagi tashkilotlar va korxonalar o'rtasidagi munosabatlarni anglatadi. Bugungi kunda elektron tijoratda ushbu turdagi biznes 80% ni tashkil qiladi va tahlilchilarning fikriga ko'ra, B2B B2C segmentiga qaraganda tez o'sib bormoqda. B2B bozori elektron infratuzilma va elektron bozorlar kabi ikkita asosiy komponentdan iborat. Elektron infratuzilma B2B ning asosi bo'lib, quyidagilardan iborat

- logistika – yetkazib berish va taqsimlash;
- amaliy xizmat ko'rsatuvchi provayderlar – paketli dasturiy ta'minotni markaziy nuqtadan (masalan, Oracle va Linkshare) joylashtirish va boshqarish;
  - elektron tijorat jarayonida veb-xosting, xavfsizlik yechimlari va mijozlarga xizmat ko'rsatish kabi funksiyalarni outsorsing qilish (masalan, eShare, NetSales, Enterprises va Universal Access kabi provayderlar outsorsingi);
  - internetda auksionlarning real vaqt rejimida ishlashi va ularga xizmat ko'rsatish uchun dasturiy ta'minoti (masalan, Moai Technologies va OpenSite Technologies);
  - veb-sayt kontentini boshqarish va yetkazib berishni osonlashtiradigan kontentni boshqarish dasturi (masalan, Interwoven va ProcureNet);
  - internetga asoslangan savdo vositalari (masalan, Commerce One, XML-ga asoslangan xaridlarni avtomatlashtirish dasturi).

–B2C business-to-consumer – elektron tijoratda, kompaniyalar va iste'molchilar o'rtasidagi tijorat munosabat turlaridan biri hisoblanadi. Bunda iste'molchi munosabatlari asosan tovarlarni (masalan, moddiy qadriyatlar va iste'mol tovarlari, raqamli kontent materiallari -dasturiy ta'minot va elektron kitoblar) sotib olishi mumkin. Elektron tijoratning ushbu shakli eng dastlabki biznes model hisoblanadi va uning kelib chiqishi telefon liniyalarining chakana savdosiga borib taqaladi.

–B2G business-to-government – biznes va hukumat o'rtasidagi elektron tijorat, ya'ni biznes va davlat sektori o'rtasidagi munosabatlar. Elektron tijoratning bu turi odatda davlat xaridlari, onlayn litsenziyalash va internet va elektron bozorlardan foydalanish orqali davlat bilan bog'liq boshqa operatsiyalarni qamrab oladi. Internetga asoslangan davlat xaridlari xaridlar jarayonining shaffofligini oshiradi va qonunbuzarliklar xavfini kamaytiradi.

–C2C consumer-to-consumer – bu turdagi elektron tijorat jismoniy shaxslar va iste'molchilar o'rtasida amalga oshiriladi. Elektron tijoratning ushbu turi elektron bozorlar va onlayn auksionlarning o'sishi bilan tavsiflanadi, ayniqsa vertikal tarmoqlarda firmalar yoki korxonalar bir nechta sotuvchilardan kerakli narsalarni taklif qilishlari mumkin. –bu turdagi elektron tijorat jismoniy shaxslar va iste'molchilar o'rtasida amalga oshiriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, C2C elektron tijorat biznes modeli savdoni sezilarli darajada soddalashtiradi, bu esa uni uchun barcha foydalanuvchilar uchun qulay tijorat muhitini yaratadi. Ushbu model sirasida misol tariqasida eng mashhur C2C biznes modellarini keltirishimiz mumkin: Amazon, Etsy, Craigslist va eBay. Mamlakatlar bo'yicha elektron tijorat bozori hajmining so'nggi reytingi Xitoyni 2022-yilda ham dunyodagi eng yirik onlayn bozor sifatida ko'rsatdi. Bu sohada Alibaba faoliyatiga katta ahamiyat egadir, chunki bu kompaniya Xitoy

bozorining yetakchisi va dunyodagi eng yirik kompaniya hisoblanadi. Alibaba 2022-yil iyun holatiga ko'ra 282 milliard AQSH dollarlik kapitaliga ega bo'lib, u dunyodagi eng qimmat kompaniyalar ro'yxatida 26-o'rinni egalladi.

Misol uchun Xitoy ijtimoiy tarmoqlardagi elektron tijorat chakana savdosidan 351,65 milliard AQSh dollarlik ulushga ega va Xitoyning elektron tijoratdan tushgan daromadi Qo'shma Shtatlardan o'n baravar ko'pdir hamda ushbu daromad 2022-yilda 875 milliard dollarni tashkil etdi. Tahlillarga ko'ra, 2023-yilda mamlakat elektron tijorat savdosidan 1,54 trillion dollar daromad olishi kutilmoqda. Xitoyning elektron tijorat daromadlari juda katta, shuningdek, Xitoy o'n yil oldin dunyodagi eng yirik elektron tijorat bozori sifatida AQShni ortda qoldirdi. Alibaba bilan bir qatorda Amazon (AQSh) elektron tijorat bozorida yetakchiro'rinni egallaydi. Amazon B2C platformalarini, shuningdek yuridik shaxslar uchun B2B platformalarini taklif etuvchi omborlar va saralash markazlarining ulkan tarmog'iga egadir. Kompaniyaning 2021-yildagi bozor daromadi 470 milliard dollarni tashkil etdi, bu o'tgan yilga nisbatan 22 foizga, sof daromadi esa 56 foizga oshgandir. Xitoy va AQShdan so'ng, elektron tijorat sohasidagi tahlillarga ko'ra, reytingda keyingi o'rinda kunchiqar yurt –Yaponiya joylashgan. Elektron tijoratning umumiy daromadi 2 1 milliard dollarni tashkil qiladi. Undan keyingi o'rnlarni, 2022-yil tahliliy ma'lumotlariga ko'ra, Germaniya va Buyuk Britaniya egallab, jahon elektron tijorat bozorida 148 milliard dollar va 143 milliard dollar bilan kuchli beshlikni yakunladi. Janubiy Koreya esa, elektron tijoratdan 118 milliard dollarlik daromad bilan oltinchi o'rinni egalladi. Hindiston 2022-yil tahlillariga ko'ra, 97 milliard dollar bilan yettinchi o'rinda turdi.

Ushbu davlatlardan so'ng birinchi o'nligni Indoneziya, Fransiya va Kanada 96,59,59 milliard dollar bilan yakunladi. O'z navbatida, bu mamlakatlarning elektron tijoratdan keladigan daromadi yaqin yillarda ikki barobarga o'sishi kutilmoqda. Elektron tijorat vujudga kelishi yuqorida qayd etilganidek, axborot texnologiyalari orqali amalga oshirilgan. Bu raqamli iqtisodiyot sohasi bo'lib, u kompyuter tarmoqlari yordamida amalga oshiriladigan barcha moliyaviy va tijorat operatsiyalarini, shuningdek, bunday operatsiyalar bilan bog'liq biznes jarayonlarini o'z ichiga oladi. Elektron tijorat –bu biznes tartib-qoidalari va operatsiyalarini avtomatlashtirish, an'anaviy savdo usullarini tijoratning elektron shakliga aylantirishdir. Bu jarayon samaradorlikni oshiradi va muntazam vazifalarni soddalashtiradi. Shu bilan birga, yaqin vaqtgacha elektron tijorat operatsiyalarining aksariyati global miqyosda amalga oshirilgan, ammo yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mahalliy kompaniyalar o'z mahsulotlarini mahalliy miqyosda ilgari surish uchun tez-tez ushbu savdo turidan foydalana boshlashmoqda. Shu bilan birga, kichik biznes boshqa yirik kompaniyalar bilan raqobatdosh bo'lib bormoqda.

Shuningdek, elektron tijorat orqali insonlar o'zlariga kerakli mahsulotlarni dunyo bo'ylab sotib olishlari va xizmatlardan foydalanishlari mumkin bo'ladi. Bu esa global tarmoq orqali insonlar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytiradi va dunyo bo'ylab integratsiyani oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.07.2022 yildagi 392-son "Elektron tijorat ma'murchiligini takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratilganligi munosabati bilan o'zbekiston respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra:

"O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi:

ikki oy muddatda elektron tijorat sohasida davlat miqyosidagi ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni

moliyalashtirish mexanizmini inobatga olgan holda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi to'g'risidagi Nizomga o'zgartirishlar kiritilsin;

mijozlarni mobil aloqa raqamiga bog'liq holda masofadan identifikatsiya qilish mexanizmining samarali ishlashini ta'minlash maqsadida 2018-yil yakuniga qadar mobil aloqa tarmog'i abonentlari boshqa mobil aloqa tarmog'iga o'tganda telefon raqamini saqlab qolish tartibini ishlab chiqsin va tasdiqlasin", – deb belgilangan.

Jahon iqtisodiyotida misli ko'rilmagan vaziyat yuzaga keldi: iqtisodiy makon global miqyosga ega bo'ldi, bu esa ekstensiv iqtisodiy o'sish uchun imkoniyatlarning kamayishiga olib keldi. Shu sababli, yalpi talabning pasayishi va iqtisodiy dinamikaning sekinlashuvi sharoitida yangi siklda ishlab chiqarish sohasi emas, balki taqsimlash sohasi innovatsiyalar harakatlantiruvchi kuch sifatida xizmat qiladi. Qamrab olinmagan bozorlar mavjud bo'lgan joyda ishlab chiqarish yetakchi ahamiyatga ega bo'ladi. Iqtisodiyotda global ortiqcha ishlab chiqarishd innovatsion faollik talab to'plangan joyda – ya'ni taqsimlash sohasiga e'tibor qaratiladi.

Elektron tijoratning globalizatsiya jarayoniga ta'siri ko'plab ko'rinishlarda ko'rinadi:

1. Bozorlarga kirish: Elektron tijorat global bozorlarga kirish imkoniyatini kengaytiradi. Kompyuterlar, smartfonlar va internet orqali har qanday mamlakatdagi mijozlar dunyo bozorlariga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2. Savdo va xizmatlar almashish: Elektron tijorat orqali mahsulotlar va xizmatlar dunyo bozorlarida oson almashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mijozlar internet orqali xarid qilish, sotish va savdo qilishlari mumkin.

3. Logistika va transport: Elektron tijorat logistika va transport sohasini yanada rivojlantiradi. Mahsulotlar va xizmatlar oson va tez yetkazib beriladi, shuningdek mijozlar xarid qilingan mahsulotlarni tez yetkazib olishlari mumkin.

4. Moliyaviy operatsiyalar: Elektron tijorat moliyaviy operatsiyalarni osonlashtiradi va tezlashtiradi. Onlayn to'lov tizimlari, elektron valyutalar va boshqa moliyaviy vositalar global moliyaviy munosabatlarni yanada osonlashtiradi.

5. Marketing va reklama: Elektron tijorat marketing va reklama sohasini yanada rivojlantiradi. Internet orqali reklama, ijtimoiy tarmoqlar orqali mijozlar bilan aloqalar o'rnatish va marketing strategiyalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shunday ekan, elektron tijorat globalizatsiya jarayoniga ta'sir ko'rsatadi va dunyo bozorlarini yanada integratsiyalashadi. Bu esa savdo va xizmatlar almashishni osonlashtiradi, moliyaviy operatsiyalarni tezlashtiradi va marketing va reklama sohasini rivojlantiradi.

Elektron tijoratning globalizatsiya jarayonida xizmatlar almashish quyidagi yo'nalishlarda osonlashadi:

1. Onlayn platformalar: Xizmatlar almashish uchun onlayn platformalar, masalan, onlayn savdo platformalari yoki xizmatlar bozorlari, mijozlar va xizmat ko'rsatuvchilarni bir-biriga bog'lash imkoniyatini yaratadi. Bu platformalar orqali xizmatlar almashish oson va tez bo'ladi.

2. Elektron to'lov tizimlari: Elektron tijoratda xizmatlar uchun to'lov tizimlari, masalan, onlayn to'lov platformalari yoki elektron valyutalar, xizmatlar uchun to'lovni osonlashtiradi. Mijozlar to'lovlarini onlayn amalga oshirish orqali xizmatlarni tez va qulay sotib olishlari mumkin.

3. Xizmatlar bozorlari: Elektron tijoratda xizmatlar bozorlari, masalan, freelans platformalari yoki xizmatlar uchun maxsus platformalar, xizmat ko'rsatuvchilar bilan mijozlarni bir-biriga bog'lash imkoniyatini yaratadi. Bu platformalar orqali xizmatlar almashish oson va tez bo'ladi.

4. Aloqa vositalari: Elektron tijoratda aloqa vositalari, masalan, elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar yoki onlayn chat xizmatlari, xizmat ko'rsatuvchilar bilan mijozlar o'rtasidagi aloqani osonlashtiradi. Bu vositalar orqali xizmatlar almashish va xizmat ko'rsatuvchilar bilan muloqot oson va tez bo'ladi.

**Xulosa.** Shuni qo'shimcha qilish kerakki, onlayn savdo faoliyatini yangi boshlayotgan kichik biznes subyektlari uchun chakana savdo nuqtalari va ofislarni ijaraga olishda mablag'larni tejaydi, shuningdek, internet orqali xorijiy bozorlarga chiqish ancha osonlashadi. Taklif etilayotgan tovar va xizmatlarning keng assortimenti, turli narxlarning taqqoslanishi, shuningdek, elektron platformadagi chakana tovarlar narxining an'anaviy bozorga nisbatan arzonligi elektron tijoratning mahalliy bozorga tez moslashishi va rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birgalikda, ma'lum bir davlatda elektron tijoratni rivojlantirish uchun quyidagilarga amal qilish muhimdir:

Birinchidan, elektron tijoratni rivojlantirish uchun qulay huquqiy muhitni, jumladan, ma'lumotlarni himoya qilish va elektron imzo to'g'risidagi qonun hujjatlarini yaratish, ularni tadbiq etilish jaroyanida shaffodlikni ta'minlash;

Ikkinchidan, elektron tijorat infratuzilmasini, jumladan, Internetga keng qamrovli ulanish va elektron to'lov tizimlarini rivojlantirish;

Uchinchidan, o'z biznesini kengaytirish uchun elektron tijoratdan foydalana oladigan kichik va o'rta korxonalarni qo'llab-quvvatlash;

To'rtinchidan, iste'molchilarni elektron tijoratdan foydalanish bo'yicha huquqiy savodxonligini oshirish va qo'llab-quvvatlash, shu jumladan Internet va elektron to'lov tizimlarida xavfsizlik qoidalari bilan tanishtirish;

Beshinchidan, elektron tijorat orqali xalqaro savdoni rivojlantirish, jumladan, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va xalqaro standartlarni o'rnatish;

Oltinchidan, elektron tijoratda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, jumladan, yangi texnologiyalar va biznes modellarini ishlab chiqish;

Yettinchidan, mobil elektron tijoratni rivojlantirish, shu jumladan mobil ilovalar yaratish va mobil qurilmalar uchun saytlarni optimallashtirish;

Sakkizinchidan, barqaror elektron tijoratni qo'llab-quvvatlash, jumladan, uning o'sishiga to'siq bo'luvchi muammolarni bartaraf etish. Umuman olganda, elektron tijoratni rivojlantirishda yuqorida qayd etilgan samarali usullari savdoni oshirishga, mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilashga va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga yordam beradi.

Umuman olganda, globallashuv jarayonlarida, uning dastlabki bosqichidan bo'shlab xalqaro savdoning roli juda katta. Shuning uchun ham, BJSTga O'zbekistonning a'zo bo'lishi natijasida yuzaga keladigan potentsial samara bu qisqa muddatli davrda mahsulot eksportini jahon bozorida yuz beradigan to'siq va chegaralanishlardan himoya qilish shartlarini yaxshilashdan iborat bo'ladi.

Uzoq muddatli davrda esa mehnat unumdorligini oshirib, ichki va jahon bozorida xarajatlarni kamaytirish asosida korxonada ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirishga erishildi. Bu holatlar tuzilmaviy o'zgarishlar jarayonini jadallashtirib eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy tizimni shakllantirishga, chet el investitsiyalarini o'stirishga, jahon xo'jaligi aloqalarida qatnashishga imkon yaratadi. Elektron tijoratning globalizatsiya jarayonida xizmatlar almashish osonlashadi va tezlashadi. Onlayn platformalar, elektron to'lov tizimlari, xizmatlar bozorlari va aloqa vositalari xizmatlar almashishni osonlashtiradi va xizmat ko'rsatuvchilar bilan mijozlar o'rtasidagi aloqani yanada qulaylashtiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Suyunov Dilmurod Xolmuradovich, Kenjabayev Aman Turgunovich, Ro'ziyev Abdumalik Ortig'aliyevich. Elektron tijorat. Darslik. -T.: 2023. –298 b.
2. Sh.**Sharifov**. Global iqtisodiy rivojlanish [Matn]: o'quv qo'llanma. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “FAN BULOG‘I” nashriyoti, 2024 - 312 bet.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Elektron tijorat ma‘murchiligini takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratilganligi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qarori, 20.07.2022 yildagi 392-Son
4. Pulatov M. E. On the Need And Ways of Converting Some of the Components of Goodwill Into Identifiable Intangible Assets //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2019. – T. 8.
5. Pulatov M. E. Conceptual Issues Of Accounting Of Intellectual Capital //American Journal of Economics and Business Management. – 2019. – T. 2. – №. 1. – C. 117-123.
6. Pulatov M. System Analysis Of Intellectual Property Indicators Of Financial Statements //European Journal of Business and Economics. – 2012. – T. 6.
7. Pulatov M. INTELLECTUAL PROPERTY PARAMETERS OF FINANCIAL REPORTING. – 2016.
8. EGAMBERDIEVICH P. M., NODIROVNA M. S., OGLI J. A. E. FEATURES AND PROBLEMS OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT IN THE SERVICE SECTOR IN A MARKET ECONOMY //Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 609-613.
9. Шарипов Т. С. Важность организации ресторанных услуг в управлении гостиничным бизнесом //Молодой ученый. – 2020.
10. Sharipov T. Ovkatlanih xizmatlari bozorida raqobatbardoshlik masalalari //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2017. – №. 1. – C. 136-142.
11. Saidakhmedovich S. T., Bekhruz U. PROBLEMS OF ECONOMIC DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS IN THE REAL SECTOR //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 10. – C. 624-628.
12. Sidorov V. A. et al. INNOVATSIYA IQTISODIYOTI: TEXNOLOGIK YUTUQ MUAMMOSI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 2. – C. 8-15.
13. Saidakhmedovich, S. T. ., Nodirovna, M. S. ., &Khaydarjanovna, S. D. . (2022). Ways to Improve the Performance of Service Enterprises in Rural Areas. Middle European Scientific Bulletin, 24, 21-24.
14. Sharifov S. S., Astanaqulov S. Improving the welfare and employment of the population //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 31-41.
15. Saidahadovich S. S. The ways of Efficient use of Resources in Consumer Services //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2021. – T. 2. – №. 8. – C. 22-29.
16. Artikov Z. S. In Competitions Conductrd by Belt Wrestling Use of Fast Technical Methods Efficiency //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 253-255.

17. Saifiddinovich A. Z., Shokhrukhovich U. F. Social Protection of the Unemployed and their Labor Increasing Competitiveness in the Market //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 61-63.
18. Артиков З. С. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2022. – №. 4 (152). – С. 59-65.
19. JournalNX-AMultidisciplinary Peer Reviewed Journal Published <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=7497936228629876027&btnI=1&hl=ru>
20. <https://lex.uz/docs/-6122858>
21. [https://mitc.uz/uz/pages/about\\_ministry](https://mitc.uz/uz/pages/about_ministry)
22. [https://www.researchgate.net/publication/370761447\\_O'ZBEKISTON\\_RESPUBLIKASI\\_AXBOROT\\_TEXNOLOGIYALARI\\_VA\\_KOMMUNIKATSIYALARINI\\_RIVOJLANTIRISH\\_VAZIRLIGI\\_RAQAMLI\\_TEXNOLOGIYALAR\\_SOHALARDA\\_AMALIY\\_JORIY\\_ETISHNING\\_YECHIMLARI\\_VA\\_MUAMMOLARI\\_Xalqaro\\_ilmiy-texnik](https://www.researchgate.net/publication/370761447_O'ZBEKISTON_RESPUBLIKASI_AXBOROT_TEXNOLOGIYALARI_VA_KOMMUNIKATSIYALARINI_RIVOJLANTIRISH_VAZIRLIGI_RAQAMLI_TEXNOLOGIYALAR_SOHALARDA_AMALIY_JORIY_ETISHNING_YECHIMLARI_VA_MUAMMOLARI_Xalqaro_ilmiy-texnik)